



New Day in Medicine
Новый День в Медицине

NDM



TIBBIYOTDA YANGI KUN

Ilmiy referativ, marifiy-ma'naviy jurnal



AVICENNA-MED.UZ



ISSN 2181-712X.
EiSSN 2181-2187

5 (79) 2025

Сопредседатели редакционной коллегии:

**Ш. Ж. ТЕШАЕВ,
А. Ш. РЕВИШВИЛИ**

Ред. коллегия:

М.И. АБДУЛЛАЕВ
А.А. АБДУМАЖИДОВ
Р.Б. АБДУЛЛАЕВ
Л.М. АБДУЛЛАЕВА
А.Ш. АБДУМАЖИДОВ
М.А. АБДУЛЛАЕВА
Х.А. АБДУМАДЖИДОВ
Б.З. АБДУСАМАТОВ
М.М. АКБАРОВ
Х.А. АКИЛОВ
М.М. АЛИЕВ
С.Ж. АМИНОВ
Ш.Э. АМОНОВ
Ш.М. АХМЕДОВ
Ю.М. АХМЕДОВ
С.М. АХМЕДОВА
Т.А. АСКАРОВ
М.А. АРТИКОВА
Ж.Б. БЕКНАЗАРОВ (главный редактор)

Е.А. БЕРДИЕВ
Б.Т. БУЗРУКОВ
Р.К. ДАДАБАЕВА
М.Н. ДАМИНОВА
К.А. ДЕХКОНОВ
Э.С. ДЖУМАБАЕВ
А.А. ДЖАЛИЛОВ
Н.Н. ЗОЛотова
А.Ш. ИНОЯТОВ
С. ИНДАМИНОВ
А.И. ИСКАНДАРОВ
А.С. ИЛЪЯСОВ
Э.Э. КОБИЛОВ
А.М. МАННАНОВ
Д.М. МУСАЕВА
Т.С. МУСАЕВ
М.Р. МИРЗОЕВА
Ф.Г. НАЗИРОВ
Н.А. НУРАЛИЕВА
Ф.С. ОРИПОВ
Б.Т. РАХИМОВ
Х.А. РАСУЛОВ
Ш.И. РУЗИЕВ
С.А. РУЗИБОЕВ
С.А. ГАФФОРОВ
С.Т. ШАТМАНОВ (Кыргызстан)
Ж.Б. САТТАРОВ
Б.Б. САФОЕВ (отв. редактор)
И.А. САТИВАЛДИЕВА
Ш.Т. САЛИМОВ
Д.И. ТУКСАНОВА
М.М. ТАДЖИЕВ
А.Ж. ХАМРАЕВ
Д.А. ХАСАНОВА
Б.З. ХАМДАМОВ
А.М. ШАМСИЕВ
А.К. ШАДМАНОВ
Н.Ж. ЭРМАТОВ
Б.Б. ЕРГАШЕВ
Н.Ш. ЕРГАШЕВ
И.Р. ЮЛДАШЕВ
Д.Х. ЮЛДАШЕВА
А.С. ЮСУПОВ
Ш.Ш. ЯРИКУЛОВ
М.Ш. ХАКИМОВ
Д.О. ИВАНОВ (Россия)
К.А. ЕГЕЗАРЯН (Россия)
DONG JINCHENG (Китай)
КУЗАКОВ В.Е. (Россия)
Я. МЕЙЕРНИК (Словакия)
В.А. МИТИШ (Россия)
В.И. ПРИМАКОВ (Беларусь)
О.В. ПЕШИКОВ (Россия)
А.А. ПОТАПОВ (Россия)
А.А. ТЕПЛОВ (Россия)
Т.Ш. ШАРМАНОВ (Казахстан)
А.А. ЩЕГОЛОВ (Россия)
С.Н. ГУСЕЙНОВА (Азербайджан)
Prof. Dr. KURBANHAN MUSLUMOV (Azerbaijan)
Prof. Dr. DENIZ UYAK (Germany)

ТИББИЁТДА ЯНГИ КУН НОВЫЙ ДЕНЬ В МЕДИЦИНЕ NEW DAY IN MEDICINE

*Илмий-рефератив, маънавий-маърифий журнал
Научно-реферативный,
духовно-просветительский журнал*

УЧРЕДИТЕЛИ:

**БУХАРСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ
МЕДИЦИНСКИЙ ИНСТИТУТ
ООО «ТИББИЁТДА ЯНГИ КУН»**

Национальный медицинский
исследовательский центр хирургии имени
А.В. Вишневского является генеральным
научно-практическим
консультантом редакции

Журнал был включен в список журнальных
изданий, рецензируемых Высшей
Аттестационной Комиссией
Республики Узбекистан
(Протокол № 201/03 от 30.12.2013 г.)

РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ:

М.М. АБДУРАХМАНОВ (Бухара)
Г.Ж. ЖАРЫЛКАСЫНОВА (Бухара)
А.Ш. ИНОЯТОВ (Ташкент)
Г.А. ИХТИЁРОВА (Бухара)
Ш.И. КАРИМОВ (Ташкент)
У.К. КАЮМОВ (Тошкент)
Ш.И. НАВРУЗОВА (Бухара)
А.А. НОСИРОВ (Ташкент)
А.Р. ОБЛОКУЛОВ (Бухара)
Б.Т. ОДИЛОВА (Ташкент)
Ш.Т. УРАКОВ (Бухара)

5 (79)

2025

май

www.bsmi.uz

<https://newdaymedicine.com> E:

ndmuz@mail.ru

Тел: +99890 8061882

UQK 61:613.6.01-02

**SURXONDARYO VILOYATIDA HAZM QILISH TIZIMI KASALLIKLARINING
TARQALISH DINAMIKASI VA HUDUDIIY XUSUSIYATLARI**

¹Shoymardonov Baxtiyor Xolnazarovich <https://orcid.org/0009-0004-3436-6083>

²Avezova Guloyim Sattarovna <https://orcid.org/0000-0002-2963-3608>,

E-mail: guloyimavezova77@gmail.ru

¹Toshkent tibbiyot akademiyasi Termiz filiali Surxondaryo viloyati Termiz shahri, I.Karimov
ko'chasi 64-uy Tel: +998 (76) 223-47-20 E-mail: info@ttatf.uz

²Toshkent tibbiyot akademiyasi, 100109 Toshkent, O'zbekiston Farobiy ko'chasi 2, Tel:
+998781507825 E-mail: info@tma.uz

✓ **Rezyume**

Surxondaryo viloyatining issiq iqlim sharoitida yashovchi aholi orasida oshqozon-ichak tizimi (OIT) kasalliklarining tarqalishi so'nggi yillarda jadal sur'atda o'sib bormoqda. Ushbu tadqiqotda 2017–2024 yillar davomida aholi orasida bu kasalliklar bilan kasallanish holatlari statistik ma'lumotlar asosida o'rganildi. Tadqiqot natijalariga ko'ra, umumiy holda 2022 yilgacha kasallanish ko'rsatkichlari pasaygan bo'lsa-da, keyingi yillarda ayniqsa o't chiqarish yo'llari va me'da-o'n ikki barmoq ichak yaralari bilan kasallanish ko'rsatkichlari keskin ortgan. Bu holat aholi ovqatlanish madaniyati, to'g'ri ovqatlanish imkoniyati, profilaktik tekshiruvlarning yetarli darajada emasligi, diagnostika va davolash xizmatlarining sifatsizligi bilan izohlanadi. Tadqiqot aholining yosh guruhlari va hududlar kesimidagi dinamik o'zgarishlarini tahlil qilib, kasalliklarning tarqalishiga ta'sir etuvchi asosiy ijtimoiy, ekologik va tibbiy omillarni aniqlashga qaratilgan.

Kalit so'zlar: Surxondaryo viloyati, hazm qilish tizimi kasalliklarining tarqalish dinamikasi, kasalliklarining hududiy xususiyatlari

**ДИНАМИКА И РЕГИОНАЛЬНЫЕ ОСОБЕННОСТИ РАСПРОСТРАНЕНИЯ
ЗАБОЛЕВАНИЙ ОРГАНОВ ПИЩЕВАРЕНИЯ В СУРХАНДАРЬИНСКОЙ ОБЛАСТИ**

¹Шоймардонов Бахтиёр Холназарович <https://orcid.org/0009-0004-3436-6083>

²Авезова Гулойим Саттаровна <https://orcid.org/0000-0002-2963-3608>

¹Тошкент тиббиёт академияси Термиз филиали Сурхондарё вилояти Термиз шаҳри,
И.Каримов кўчаси 64-уй Тел: +998 (76) 223-47-20 E-mail: info@ttatf.uz

²Тошкент тиббиёт академияси. Ўзбекистон, 100109, Тошкент, Олмазор тумани, Фароби
кўчаси 2, тел: +99878 1507825, E-mail: info@tma.uz

✓ **Резюме**

Распространённость заболеваний органов пищеварения среди населения Сурхандарьинской области, проживающего в условиях жаркого климата, является актуальной медико-социальной проблемой здравоохранения. В ходе исследования были проанализированы данные за 2017–2024 годы по заболеваемости среди различных возрастных групп и регионов. Полученные результаты показали тенденцию к снижению заболеваемости до 2022 года, однако в 2023 и 2024 годах зафиксировано повторное увеличение, особенно по язве желудка и двенадцатиперстной кишки, а также заболеваниям желчного пузыря и желчевыводящих путей. Эта ситуация обусловлена особенностями питания населения, ограниченными диагностическими возможностями, качеством медицинского обслуживания и социально-психологическими факторами. На основе результатов исследования разработаны рекомендации по совершенствованию профилактики, внедрению скрининговых обследований и улучшению санитарно-просветительской работы среди населения.

Ключевые слова: Сурхандарьинская область, динамика распространения болезней органов пищеварения, региональные особенности заболеваний.

DYNAMICS AND REGIONAL PATTERNS OF GASTROINTESTINAL DISEASES IN THE SURKHANDARYA REGION: A RETROSPECTIVE ANALYSIS

¹Shoymardonov Baxtiyor Xolnazarovich <https://orcid.org/0009-0004-3436-6083>

²Avezova Guloyim Sattarovna <https://orcid.org/0000-0002-2963-3608>,

E-mail: guloyimavezova77@gmail.ru

¹Termez branch of the Tashkent Medical Academy Surkhandarya region Termez city, I. Karimov street No. 64 Tel: +998 (76) 223-47-20 E-mail: info@ttatf.uz

²Tashkent Medical Academy (TMA) Uzbekistan, 100109, Tashkent, Almazar district, st. Farobi 2, phone: +99878 1507825, E-mail: info@tma.uz

✓ Resume

The prevalence of gastrointestinal diseases among the population of Surkhandarya region, characterized by a hot climate, represents a pressing medical and social issue in public health. This study analyzed morbidity data from 2017 to 2024 across various age groups and districts. Findings revealed a general decrease in cases up to 2022, followed by a significant increase in 2023 and 2024, particularly in peptic ulcers and biliary tract diseases. The growing incidence is attributed to poor dietary habits, limited diagnostic capacity, insufficient quality of medical care, and socio-psychological factors. Based on the results, recommendations were proposed to enhance preventive care, implement population screening programs, and improve community health education and nutrition awareness.

Keywords: Surkhandarya region, dynamics of the spread of digestive system diseases, regional characteristics of diseases

Dolzarbligi

Hazm qilish tizimi kasalliklari nafaqat O'zbekiston, balki jahon bo'ylab aholi salomatligiga jiddiy ta'sir ko'rsatayotgan patologiyalar guruhidir. Me'da, ichaklar, jigar, o't pufagi va ular bilan bog'liq boshqa organlar kasalliklari keng tarqalgan bo'lib, bu holatning kelib chiqishi turli faktorlarga bog'liq: ovqatlanish madaniyati, iqlim, ijtimoiy-iqtisodiy holat, kasalliklarni erta aniqlash va samarali davolash imkoniyatlari.

Surxondaryo viloyati — O'zbekistonning janubiy, yirik aholiga ega, issiq iqlimga ega bo'lgan hududlaridan biri hisoblanadi. Aholining katta qismi qishloq joylarda istiqomat qilishi, ovqatlanish sharoitlarining past darajada ekanligi, sanitar-gigienik talablarga to'liq amal qilinmasligi, tibbiy xizmat ko'rsatish tizimidagi kamchiliklar ushbu hududda GI kasalliklarining yuqori darajada uchrashiga sababchi bo'lmoqda. Mazkur tadqiqotda hududdagi 8 yillik statistik ma'lumotlar tahlil qilinib, kasalliklar tarqalishining dinamikasi, yosh guruhlari va hududlar bo'yicha farqlari hamda boshqa ijtimoiy va tibbiy omillar tahlil qilindi.

Tadqiqot maqsadi: Hududdagi 8 yillik statistik ma'lumotlar tahlil qilinib, hazm qilish tizimi kasalliklar tarqalishining dinamikasi, yosh guruhlari va hududlar bo'yicha farqlari hamda boshqa ijtimoiy va tibbiy omillar tahlil qilish.

Material va tadqiqot usullari

Tadqiqot davomida 2017–2024 yillar oralig'ida Surxondaryo viloyatining barcha shahar va tumanlaridagi tibbiyot muassasalari tomonidan taqdim etilgan rasmiy statistik ma'lumotlar o'rganildi. Tadqiqot uchun asos qilib Xalqaro kasalliklar klassifikatsiyasi (XKT-10)ning XI sinfi — “Hazm qilish a'zolari kasalliklari” (K00–K93) olindi. Me'da va o'n ikki barmoq ichak yaralari (K25–K26), jigar va o't chiqarish yo'llari kasalliklari (K80–K83.9), gastritlar, duodenitlar, inflamator kasalliklar, boshqa nozologiyalar kesimida tahlil amalga oshirildi. Shuningdek, aholining turli yosh guruhlari (15-17 yosh, 18-65 yosh, 65 yoshdan katta) bo'yicha kasalliklar dinamikasi o'rganildi. Yashash hududi (shahar, qishloq), gender, ijtimoiy qatlamlar kesimida ham ma'lumotlar tahlil qilindi. Ma'lumotlar SPSS dasturida ishlendi, ishonchlilik darajasi ($P < 0.05$)da baholandi, t-kriteriy va korrelyatsiya koeffitsientlari hisoblab chiqildi. Hududiy farqlar, kasalliklar strukturasi va ularning o'zgarishlari to'g'risida grafik va jadval ko'rinishida tahliliy taqdimot tayyorlandi.

Natijalar va tahlillar

Hazm qilish tizimi a'zolari kasalliklarining issiq iqlim sharoiti aholisi orasida tarqalishi dolzarb tibbiy-ijtimoiy muammodir. Bu patologiya umumiy kasallanish tuzilmasida nafaqat barqaror uchinchi o'rinni egallab (faqat nafas a'zolari va qon aylanish tizimi kasalliklaridan keyin turadi) balki uning tarqalish ko'rsatkichlari rasmiy statistika ma'lumotlariga ko'ra barqaror o'sish tendensiyasiga ega. Shu bilan birga, statsionarga yotqizilgan bemorlar tuzilmasida hazm qilish tizimi kasalliklari birinchi o'rinni egallaydi.

So'nggi yillarda endoskopik optik kogerent tomografiya kabi yuqori aniqlikka ega bo'lgan yangi va sezgir diagnostik usullarning yaratilishi va amaliyotga joriy etilishi bilan hazm qilish tizimi shilliq pardasiga tegishli patologiyalar (shu jumladan o'sma tabiatli) aniqlanishi ancha yuqori darajaga ko'tarilishiga olib keladi.

Tadqiqot doirasida biz 2017–2022 yillar orasida Surxondaryo viloyati katta yoshli aholi orasida hazm qilish tizimi a'zolari kasalliklari bo'yicha tibbiyot muassasalari murojaatlar va ixtisoslashgan statsionarlarga yotqizish holatlari tahlilini o'tkazdik.


Ma'lumki, hazm qilish a'zolari kasalliklari keng tarqalgan kasalliklar guruhidir, ular orasida me'da va o'n ikki barmoq ichak yarasi, jigar kasalliklari, oshqozon osti bezi shikastlanishlari (shu jumladan og'ir shakllari), kichik va ingichka ichak kasalliklari, o'sma kasalliklari kabi patologiyalar mavjud. Ushbu patologiya Xalqaro kasalliklar klassifikatsiyasining X-qayta ko'rilgan tahriridagi (HKT-10) XI sinfi K00–K93 orasida joylashgan bo'lib, bu kasalliklar turli etiologiya va klinik ko'rinishlarga ega. Ular qatoriga quyidagilar kiradi: o'tkir gastrit (K29.4), surunkali atrofik gastritlar, duodenitlar (K29.5, K29.6–K29.9), gijja (K40–K46), ichakning boshqa kasalliklari (K55–K63), infeksiyon bo'lmagan enterit va kolitlar (K50–K52), qorin pardasi kasalliklari (K65–K67).

Demak, XI sinf – “Hazm qilish a'zolari kasalliklari” (K00–K93) nafaqat klinik jihatdan polimorf bo'lib, balki tarkibidagi nozologiyalar soni jihatidan ham eng ko'p guruh hisoblanadi.

Tadqiqotda Surxondaryo viloyati shahar va tumanlarida 2017–2022 yillar uchun dinamik tahlil olib borildi. Unda umumiy XI sinf K00–K93 bo'yicha, hamda me'da va o'n ikki barmoq ichak yarasi (K25–K26) va o't pufagi kasalliklari, xolesistit, xolangit (K80–K83.9) kabi aniq nozologiyalar kesimida tarqalish va birlamchi kasallanish tendensiyalari o'rganildi va tahlil qilindi.

Terapevtida dispanser nazoratida turadigan bemorlarning 32% hazm a'zolari bilan kasallanganlar tashkil qiladi. Ushbu kasallik ko'plab holatlarda uzoq vaqt davomida vaqtincha mehnat qobiliyatining yo'qotilishi, davolanish va rehabilitatsiya jarayonlarining qimmatligi sababli be'morning o'zini hamda davlatning budjetidan katta miqdordagi moddiy yo'qotishga sabab bo'ladi [1,3,5,9].

Surxondaryo viloyati Respublikamizning aynan issiq iqlim sharoitiga mansub viloyatlardan biri hisoblanadi. Viloyatda oshqozon ichak kasalliklari (OIK) bilan aholining kasallanish dinamikasi 2017–2022 yillar davomida o'rganish shuni ko'rsatdiki, kasallikning qayd etilish holati bo'yicha kamayish tendensiyasiga ega.



1-rasm. Oshqozon ichak kasalliklarining yillar kesimida dinamikasi (mazkur yoshdagi 10 000 aholiga nisbatan)

Xususan, 2017 yil kasallik ko'rsatkichi 10 ming aholiga nisbatan 768,8 ni tashkil qilgan bo'lsa, 2022 yil 439,7 qayd etilgan, ya'ni 6 yil davomida 56,1%ga kamayganligi aniqlangan. 18-65 yosh aholi guruhi o'rtasida ham xuddi shunday kamayish tendesiyasiga ega bo'lib, mos ravishda 468,9 va 272,3ni tashkil qilgan holda 58,0 % ga kamaygan (rasm). 2023 yildan boshlab OIK bilan aholining kaasallanish ko'rsatkichlari yana ortishi kuzatildi, xususan 2023 yilda 10 ming aholiga nisbatan 582,3 ni tashkil qilgan bo'lsa, 2024 yil 650,4 qayd etilgan. Oxirgi 3 yil davomida 32,3%ga oshgan. Buning sababini 2 xil izohlash mumkin. Birinchisi 2020 yil koronavirus pandemiyasi tufayli oshqozon ichak kasalliklari bilan murojaatlar hamda statsionarga yotqizilish holatlari keskin kamayib ketdi.

Ikkinchisi bu olingan ma'lumotlar OIKlarining haqiqiy tarqalganlik darajasini ko'rsatib bermaydi, olingan ma'lumotlar statistik jihatdan ishonchli emas. Aholi orasida OIKlarining tarqalganligini hamda aholining mazkur kasallikdan kasallanish darajasini o'rganish uchun aholi orasida chuqurlashtirilgan tibbiy ko'riklar o'tkazish maqsadga muvofiqdir.


3.1-jadval

Surxondaryo viloyatida 2017-2022 yillar davomida oshqozon ichak kasalliklarining tarqalganligi (mazkur yoshdagi 10 000 aholiga nisbatan)

Yosh guruhlari	Yillar							
	2017	2018	2019	2020	2021	2022	2023	2024
jami	768,8	763	699,9	551,7	497,1	439,7	582,3	650,4
15-17 yosh	87,0	81,7	69,1	59,2	49,8	45,3	61,3	75,6
18-65 yosh	464,9	531,0	448,4	350,9	321,8	272,3	390,7	480,7
65 yoshdan katta	35,4	35,5	36,3	29,4	42,3	38,9	42,4	48,7

Umuman olganda, OIKlari aholi orasida tarqalganlik darajasi kamayishiga qaramasdan, 65 yoshdan katta aholi guruhi o'rtasida mazkur kasallikning tarqalganlik darajasi ortib borishi qayd etilgan. Xususan, 2017 yilda mazkur yosh guruhidagi 10 ming aholiga nisbatan ko'rsatkich 35,4 ni tashkil qilgan bo'lsa, 2022 yil 38,9 ga teng bo'lgan, ya'ni 9,3 % ga ortganligi aniqlangan. Katta yoshli aholi o'rtasida nafaqat surunkali OIK balki boshqa organ va tizimlarning ham surunkali kasalliklari ortib boradi, bu kattalar organizmining o'ziga xos anatomo-fiziologik hamda immun tizimidagi o'zgarishlari bilan bog'liqdir (jadval).

Biz aholi Surxondaryo viloyati shahar va tumanlarida aholi orasida OIKlarining tarqalganligini o'rganish maqsadida oxirgi 3 yil ma'lumotlarini (2022, 2023, 2024y) chuqur tahlil qildik.




2-rasm. Oshqozon ichak kasalliklarining yoshlar kesimidagi oxirgi 3 yildagi dinamikasi (mazkur yoshdagi 10 000 aholiga nisbatan)

2-rasmdan ko‘rinib turibdiki, oxirgi 3 yilda viloyatda OIK bilan aholining barcha yosh guruhlarida dinamikada o‘shish qayd qilindi.

Katta yoshli aholi orasida o‘t pufagi, o‘t chiqarish yo‘llari surunkali kasalliklari (asosan surunkali xolesistit) ustunlik qilib, OIT strukturasida 21,1% ni egalladi. (2-rasm). Bizning natijalarga ko‘ra gastrit va duodenit OIKlarining 16,8 % ni tashkil qiladi.

Statistik ma’lumotlarga qaraganda birgina oshqozon yarasi kasalligi bilan turli mamlakatlar aholisining 5-10 % og‘rishadi. Oshqozon yara kasalligi erkaklarda ayollarga nisbatan ko‘p uchrashi aniqlangan [2,8,9]. Bizning tadqiqot natijalarimizga ko‘ra, oshqozon va 12 barmoq ichak yara kasalligi OIT strukturasida 6,8 % ni tashkil qilgan.



2-rasm. OIK strukturasida (%)

Viloyatda OIT kasalliklari strukturasida me‘da va o‘n ikki barmoq ichak yarasi hamda o‘t chiqarish yo‘llari kasalliklari yetakchilik qilganligi bois, ushbu kasalliklarni tumanlar kesimida dinamikada tahlil qildik. Bu guruh kasalliklari tarqalishida turlicha tendensiyalar kuzatildi. Oshqozon-ichak yara kasalligi ma’lumotlarimizga ko‘ra, 2022 yilda 6,6% bo‘lgan ko‘rsatkich 2024 yilga kelib 8,2% gacha ychran.

Termez shahrida aholi orasida o‘t chiqarish yo‘llari (O‘ChY) kasalliklarining tarqalishi, aksincha, sezilarli darajada o‘shish tendenciyasiga ega. 2022 yilda o‘t pufagi yallig‘lanishi bilan bog‘liq kasalliklar (surunkali xolesistit, xolatgit va boshq.) tarqalishi 8,4%oni tashkil etgan bo‘lsa, 2024 yilda bu ko‘rsatkich 8,9%ogacha ortgan ($R<0,05$) (jadval 3.3).

3.2- jadval

2022–2024 yillarda shahri tumanlari katta yoshdagi aholisi orasida hazm qilish tizimi a‘zolari kasalliklari tarqalishi ko‘rsatkichlari (1000 nafar aholiga nisbatan)

Tuman nomi	K00–K93 (jami)		Oshqozon ichak yara kasalliklari (K25–K26)		O‘t pufagi kasalliklari (K80–K83.9)	
	2022y	2024y	2022y	2024y	2022y	2024y
Termiz shahar	43,1	57,6	9,4	11,2	8,4	8,9
Termiz	18,1	24,4	6,4	7,8	6,9	7,8
Angor	54,1	57,5	11,5	12,6	9,9	11,3
Jarqo‘rg‘on	46,0	49,0	10,5	12,9	8,7	9,6
Sherobod	51,2	62,0	9,8	11,8	9,0	9,9
Jami viloyat bo‘yicha	27,2	48,0	6,6	8,2	7,7	8,4

Jadvaldan ko‘rinib turibdiki, hazm qilish tizimi kasalliklari Termez shahar aholisi orasida aniq va barqaror o‘shish tendensiyasiga ega. XI sinf (K00–K93) bo‘yicha umumiy ko‘rsatkich 43,1 %dan 57,6 %ogacha oshgan (19,7%, R<0,05). Bu yuqori o‘shish sur‘ati hisoblanadi, chunki so‘nggi 3 yilda 20%ga oshgan.

Tumanlar kesimidagi dinamikaga nazar solsak: Termiz tumanida tarqalish 45,7%ga, Jarqo‘rg‘on tumanida — 30,3%, Angor tumanida — 29,6%, Sherobod tumanida — 30,6%. Bu o‘shish ko‘rsatkichlari, asosan, aholining ovqatlanish sharoitlari yomonlashuvi bilan bog‘liq. Ko‘pchilikning moddiy ta‘minoti yashash minimumi darajasida bo‘lib, etarli va to‘g‘ri ovqatlanishni ta‘minlay olmagan. Bu holat terapevtlar, gigienistlar tomonidan ham qayd etilgan, aholining ovqatlanish madaniyati, tartibi, sifati bunda muhim ahamiyatga ega.

Yoshlar, talabalar va kollej o‘quvchilari uchun issiq ovqatlanishni tashkil etish yetarli darajada emasligi ham jiddiy ahamiyatga ega. Ular orasida oshqozon-ichak trakti (hazm qilish tizimi) kasalliklari, odatda, donozologik sindromlar orqali boshlanib, klinik belgilari kech aniqlanadi. Yara kasalligining o‘shish sur‘ati Jarqo‘rg‘on (+26,4%), Termiz (+25,2%) va Angor (+31,1%) tumanlarida yuqori bo‘ldi. Sherobod tumanida esa bir oz pasayish qayd etildi (0,2%), ammo bu statistik jihatdan ishonchli emas. Intensiv ko‘rsatkichlar dinamikasining bunday farqli bo‘lishi, ehtimol, me‘da va o‘n ikki barmoq ichak kasalliklarini erta aniqlash va davolash ishlarining etarlicha tashkil etilmagani bilan hamda me‘da va o‘n ikki barmoq ichak kasalliklarini erta aniqlash va davolash ishlari etarlicha tashkil etilmaganini ko‘rsatadi.

Shuningdek, mehnatga layoqatli yoshdagi aholi va o‘rta hamda oliy o‘quv yurtlari talabalari uchun issiq ovqatlanishni etarlicha tashkil qilinmaganligi ham muhim ahamiyatga ega. Bunday yosh toifasida hazm qilish tizimi kasalliklari ko‘pincha donozologik sindromlar ko‘rinishida boshlanib, kasallikning klinik belgilari kechroq namoyon bo‘ladi.

Umuman olganda, viloyat bo‘yicha o‘t chiqarish yo‘llari va me‘da va o‘n ikki barmoq ichak yarasi tarqalish ko‘rsatkichi 2022 yilda 7,7 % ni tashkil etdi, bu esa 2024 yilga nisbatan 9,1% ga oshish tendensiyasini aniq namoyon etdi (P<0,05).

Shu bilan birga, ta‘kidlash joizki, XI sinf bo‘yicha patologiya tarqalishining jadal o‘shish sur‘ati, avvalo, o‘t pufagi kasalliklari, xolesistit, xolangit (K80 – K83.9) bo‘yicha intensiv ko‘rsatkichlarning sezilarli darajada oshgani bilan izohlanadi.

Ushbu holatning sabablari, birinchi navbatda, qishloq aholisining hayot tarzi va ovqatlanish xususiyatlari, shuningdek, maxsus tibbiy yordamning tashkil etilishi, uning mavjudligi va sifatidagi farqlar bilan izohlanadi. Tahlillarga ko‘ra, ko‘plab markaziy tuman shifoxonalarida gastroenterologik bo‘limlar yoki shunga ixtisoslashtirilgan koykalar mavjud emas. Ushbu omillar jami qishloq aholisi orasida mazkur patologiyaning yuqori darajada tarqalishini belgiladi.

Shubhasiz, yillar davomida shakllangan tarqalish ko‘rsatkichi jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy tuzilishi, aholining hayot tarzi, turmush sharoiti, ijtimoiy-psixologik holati, sog‘liqni saqlash tizimi, tibbiy kadrlar malakasi va soni, tibbiy xizmat ko‘rsatish imkoniyati va sifati, profilaktika dasturlari va erta diagnostika usullarining joriy qilinishi kabi qator omillarni o‘z ichiga oladi.

Xulosalar

1. Surxondaryo viloyatida 2017–2022 yillarda OIT kasalliklarining umumiy tarqalish ko‘rsatkichlari sezilarli pasaygan bo‘lsa-da, 2023–2024 yillarda kasallanish holatlari qayta o‘shish tendensiyasini namoyon qildi.

2. 65 yoshdan katta aholi guruhida OIT kasalliklari, ayniqsa, o‘t pufagi va o‘t chiqarish yo‘llari patologiyalari yetakchilik qilgan.

3. Aholi orasida gastrit, duodenit, o‘t yo‘llari (surunkali xolesistit, xolangit), jigar kasalliklari va yara patologiyalari yetakchi o‘rinni egallagan.

4. Shahar va tumanlar bo‘yicha OIT kasalliklarining tarqalishi sezilarli farq qilmoqda; Termiz, Angor va Jarqo‘rg‘on tumanlarida yuqori o‘shish kuzatilgan, sabab sifatida ovqatlanish madaniyati, ijtimoiy-iqtisodiy vaziyat, tibbiy xizmat sifatining farqliligi keltirib o‘tildi.

5. Davolash-profilaktika ishlarini yanada takomillashtirish, yoshlar, talabalar va mehnatga layoqatli aholi orasida muntazam skrining va nutritiv targ‘ibot ishlarini tashkil etish zarur.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligi rasmiy statistika hisobotlari, 2017–2024
2. Дурович А.П. Внутренние болезни: руководство для врачей. – Москва: Медицина, 2019.
3. GBD 2020 Gastrointestinal Disease Collaborators. Global, regional, and national burden of digestive diseases. // Lancet Gastroenterol Hepatol, 2021;6(3):303–316.
4. Шерматов А.Р., Намдамова Л.И. Климатические особенности как фактор риска ЖКТ патологии. – Журнал гастроэнтерологии, 2022.
5. Navean S. Epidemiology and management of constipation. BMJ, 2018; 361:k2435.
6. U.S. Department of Health and Human Services. Digestive Diseases Statistics, CDC, 2022.
7. Набиев Ф.Х. Гастроэнтерология: Учебник для студентов медвузов. – Тошкент: Илм, 2020.
8. Худайбердиев А.М. Распространённость язвенной болезни в условиях жаркого климата. – Тиббиёт журнали, 2021.
9. Хасанов Р. и соавт. Социальные аспекты здоровья населения в Южном Узбекистане. – Здоровье и общество, 2023.

Qabul qilingan sana 20.04.2025